



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

HUQUQBUZARLIKLARNING BARVAQT PROFILAKTIKASI

Kadirova Moxigul Xamitovna

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi

shoʻbasi professori v.b., yu.f.d.

E-mail: m.kadirova@tsul.uz

Mamlakatimizda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilib, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning PQ-1-son qarorida taʼkidlanganidek, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish choralari koʻrish, fuqarolarning huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi ogʻzaki murojaatlarini soha va hududidan qatʼi nazar, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat planshetlari orqali real vaqt rejimida yagona tartibda qabul qilish hamda tegishliligi boʻyicha tezkorlik bilan munosabat bildirish amaliyotini yoʻlga qoʻyish dolzarb vazifa sanaladi.

Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarini qabul qilish, roʻyxatdan oʻtkazish va hisobga olish masalalari amaldagi JPKda toʻla tartibga solinmagan. Bu masalalar hozirda jinoyat ishlarini yuritishga masʼul davlat organlari va mansabdor shaxslarning ichki (idoraviy) yoʻriqnoma va buyruqlariga muvofiq hal qilinib kelinmoqda¹. Jinoyatlar hamda shaxslarga doir maʼlumotlar hisobi (IS) yuritilib, bu kriminalistik roʻyxatga olish deb nomlanadi, avtomatlashtirilgan maʼlumotlar bazasi hamda maxsus avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimi yordamida maʼlumotlarni toʻplash, qayta ishlash va saqlashdan iborat boʻladi².

Shu oʻrinda xorijiy tajribaga nazar solsak, MDHga aʼzo davlatlardan Belorusiya

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurorining “Jinoyatchilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali taʼminlash toʻgʻrisida”gi 129-son buyrugʻi. 22.02.2016.

² Kriminalistika. Darslik. –T. 2018. –B. 162.



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

JPKning 172-moddasi, Rossiya JPKning 144-moddasi, Tojikiston JPKning 145-moddasi hamda Qozog‘iston JPKning 183-moddasida o‘zgacha tartib³, ya’ni jinoyat ishini yuritishga mas’ul davlat organlarining har qanday sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, hal etish majburiyati bilan birga arizachiga ariza yoki xabarning qachon va kim tomonidan ro‘yxatga olinganligini ko‘rsatuvchi hujjatning topshirilishi ham kafolatlangan⁴.

Hozirda ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan jinoyat protsessida raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanishning ijobiy tendensiyalari ham ta’kidlanadi. Masalan, Qozog‘istonda jinoyatlarni elektron ro‘yxatga olish kitobi allaqachon yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu sudgacha bosqichni soddalashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. 2012-yildan boshlab, “Elektron KUZU” va “Elektron talon» innovatsion loyihalar asosida prokuror, bo‘linma rahbarlari yoki arizachi onlayn rejimda jinoyat to‘g‘risidagi ariza, xabar va ma’lumotlarning qayd etilishi, keyingi taqdiri va natijalaridan xabardor bo‘lib turadi.

Qozog‘iston Bosh prokurori, IIV hamda Iqtisodiy va korrupsiya jinoyatlariga qarshi kurashish Agentligi rahbari tomonidan qo‘shma buyruq imzolangan bo‘lib, unga binoan jinoyatlar, hodisalar, jinoyat ishlari va ularning tergov natijalarining elektron formatda yagona karta hisobini yuritish yo‘lga qo‘yilgan. U grafik asosida ishlab, jinoyatchilikning avtomatlashgan hisobini olib boradi⁵.

³ Uголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года №231-V ZRK // <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231>

⁴ Jumladan, RFning Bosh prokuratura, Ichki ishlar, Favqulodda holatlar vazirliklari, DXX buyruqlari asosida 01.01.2006 yildan buyon jinoyatlarning yagona hisobi ham yuritiladi.

⁵ Pravila priema i registratsii zayavleniya, soobsheniya ili raporta ob ugovovnix pravonarusheniyax, a takje vedeniya Yedinogo reestra dosudebnix rassledovaniy. Utverjdeni prikazom Generalnogo Prokurora Respubliki Kazaxstan ot 19 sentabrya 2014 g. № 89 // <https://adilet.zan.kz/rus/docs/V14W0009744>



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

Shuningdek, 2012-yildan Olmaota va Astana shaharlari ichki ishlar organlariga keltirilgan yoki chaqirilgan shaxslarning elektron hisobi va video qaydlarini yuritish joriy etilib⁶, so‘ngi yillar sarxisoblariga ko‘ra, jinoiy ta‘qib organlarining xizmat xonalarida fuqarolarni noqonuniy ushlab turish holatlari kamayishiga erishildi 23% (587 tadan 454 taga), shu jumladan, 326 nafar aybdor xodim ishdan bo‘shatilgan. Buning samarasi o‘laroq, Bosh prokurorning 2014-yil 24-dekabrda tasdiqlagan Yo‘riqnomasiga muvofiq, idoraga keltirilgan yoki chaqirilgan shaxslarning elektron hisobini yuritish “ARM YeRDR” ma‘lumotlar bazasi asosida barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga joriy etilgan.

Qozog‘iston Bosh prokurori tomonidan “SIOPSO” Qoidalari tasdiqlanib, u 73 turdagi davlat organlari (shu jumladan, HMQO) ma‘lumotlar bazasini birlashtirgan elektron tizimdir. Ushbu raqamli tizim intellektual tahlil asosida axborotlar almashinuvi hamda jinoyatlarni aniqlash va fosh etishga, uning profilaktikasiga xizmat qilmoqda. Ilgari sudlanganlikni aniqlashga doir talabnoma 3-7 sutkada hal etilgan bo‘lsa, endilikda SIOPSO yordamida 2-3 daqiqani tashkil etmoqda. Xususan, 2016-yilda jinoiy javobgarlikka 117743 ta gumonlanuvchilar jalb qilingan bo‘lib, ular yuzasidan psixiatriya va narkologiya dispanseridan ma‘lumotlar talab etilgan, ammo so‘rovnomalarga kamida 100 ming inson-soat va 2,5 tonna qog‘oz sarflangan (ma‘lumot uchun: gumonlanuvchilar 2017-yilda – 115682 ta, 2018-yilda – 108290 ta, 2019-yilda – 99508 ta, 2020-yilda – 63506 tani tashkil etgan).

Rossiyada sudgacha bo‘lgan bosqichda raqamlashtirish faqat prokuratura tizimida Rossiyaning Bosh prokurorining 2017-yil 14-sentyabrdagi 627-son buyrug‘i bilan yo‘lga qo‘yilgan. Uning JPK 30-moddasiga ko‘ra, sud bosqichini

⁶ Prikaz Generalnogo Prokurora RK ot 24 dekabrya 2014 goda №162 ob utverjdenii Instruksii o poryadke elektronogo ucheta posetiteley v pravooxranitelnix organax. [Elektronniy resurs] - Rejim dostupa.



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

raqamlashtirishda esa, nafaqat videokonferensaloqa yoki video qo‘ng‘iroqlardan foydalanish, balki fuqarolarning ariza va murojaatlari uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimi ham shakllantirilgan bo‘lib, murojaatlar elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi. Elektron pochta orqali barcha protsess ishtirokchilari audio va video yozuvlar hamda ma‘lumotlar bilan xabardor etib boriladi.

Shu o‘rinda A.Yu.Churikova⁷, jinoyat protsessida inson huquq va erkinliklarini to‘liq ta‘minlash maqsadida raqamlashtirishning idoralararo hujjatlar almashinuviga moslangan “Prokuror faoliyati modeli”dan foydalanishni taklif etadi.

T.Yu.Vilkova, L.N.Maslennikovalar esa, tortishuv va taraflar tengligini ta‘minlaydigan raqamlashtirilgan sudgacha bosqichni shakllantirish zarur⁸, deydi.

Ye.V.Markovicheva fikricha⁹, raqamlashtirish qanchalik zamonaviy bo‘lmasin, baribir inson nazorati ostida qolishi lozim. Raqamlashtirishda xavflarni majburiy baholanishi talab etiladi, sababi raqamli texnologiyalar tergov-sud yoxud shaxsiy tarkibga oid ma‘lumotlar bazalariga noqonuniy kirish xavfidan xoli emas.

A.S.Aleksandrov ta‘biri bilan aytganda, XXI asrda inson o‘zidan ko‘plab raqamli izlarni qoldirmoqda va bu ko‘plab yangi turdagi kuzatuvlar hamda qayd etishlarni

⁷ Churikova A.Yu. Model deyatelnosti prokurora, orientirovannaya na profilaktiku narusheniy ugolovno-protssesualnogo zakonodatelstva // Vestnik Saratovskoy gosudarstvennoy yuridicheskoy akademii. 2020. № 4 (135). S. 128-134.

⁸ Vilkova T. Yu., Maslennikova L. N. Zakonnost i unifikatsiya v ugolovnom sudoproizvodstve: ot blankov protssesualnix dokumentov – k elektronnomu ugolovnomu delu // Vestnik Permskogo universiteta. Yuridicheskie nauki. 2019. V. 46. -C. 728–751.

⁹ Markovicheva Ye.V. sifrovaya transformatsiya rossiyskogo ugolovnogu sudoproizvodstva // Pravosudie/Justice. 2020. T. 2, № 3. S. 86–99.



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

taqozo etadi. Aynan sun'iy intellekt yordamida mazkur turdagi jinoyatga oid shaxslarni aniqlash, tanib olish va tasdiqlash mumkin¹⁰.

Gruziya, Qozog'iston, Estoniya, Saudiya Arabistonida jinoyat ish yurituvchi raqamlashtirilishi natijasida ishlar asosan tezkorlikda 2 sutkada hal etilmoqda¹¹. Jumladan, AQSh, Avstriya, Belgiya, Germaniya, Italiya va Fransiyada jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida alohida hujjat qabul qilinmaydi, aksincha shaxsga nisbatan jinoiy ta'qibni qo'zg'atish to'g'risida hujjat qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan¹². Germaniya JPKning 163-moddasida avtomatik qidiruv qoidalari keltirilgan bo'lib, jinoyat to'g'risida ariza, xabar va ma'lumotlarning raqamli tekshiruvini tartibga soladi.

Armaniston JPKning 178-moddasida, yuridik shaxsning jinoyat to'g'risidagi xabari xizmat xati shakliga ega bo'lishi yoki telegramma, telefonogramma, radiogramma, elektron pochta yoxud boshqa tasdiqlangan ma'lumot ko'rinishida bo'lishi lozim. Xabarga jinoyat sodir etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi mumkinligi belgilangan.

Qirg'iziston JPKning 5-moddasiga ko'ra, sudgacha ish yuritish bosqichi deganda, jinoyat yoki qilmish to'g'risidagi ariza, xabar va ma'lumotlarning Yagona davlat reestrda ro'yxatga olinishidan boshlab, prokuror tomonidan jinoyat ishining sudga oshirilishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Jumladan, jinoyat yoki qilmishlarning Yagona davlat reestri – bu sudgacha ish yuritish bosqichining boshlanishidan tortib, olib borilgan protsessual harakatlar, jinoyat ishining qaysi

¹⁰ Aleksandrov A.S. Problemi teorii ugolovno-protsessualnogo dokazivaniya, kotorie nado reshat v svyazi s perexodom v epoxu sifrovix texnologiy // Sudebnaya vlast i ugolovniy protsess. 2018. -№ 2. -S. 130–139.

¹¹ Zuev S.V. Transformatsiya ugolovnogo sudoproizvodstva: perspektivi i vozmojnie riski // Rossiyskaya pravovaya sistema v usloviyax chetvertoy promishlennoy revolyusii: XVI Mejdunar. nauchno-prakt. konf. (Kutafinskie chteniya): Mat. konf. V 3 ch. Ch. 3. M.: RG-Press, 2019. –S.34.

¹² Korolenko I.I. Aktualnie problemi ugolovnogo protsesssa. –Rostov-na-Donu. 2017. –S. 20.



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

bosqichda ekanligi hamda protsess ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlar kiritib boriladigan elektron raqamli ma'lumotlar bazasidir.

Jinoyat protsessining dastlabki bosqichini jinoyat to'g'risidagi ariza va xabarlarisiz tasavvur etib bo'lmaganidek, ularsiz raqamli tizimga kirishning ham imkoni bo'lmaydi. Shu bois, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish maqsadida murojaatlar bilan ishlashni, aniqrog'i tergovga qadar tekshiruvni raqamlashtirish maqsadga muvofiq bo'lib, jinoyat to'g'risida ariza, xabar va ma'lumotlarni raqamli qabul qilish, ro'yxatga olish, xisobini yuritish, tekshirish va hal etish maqsadida Respublika idoralararo markazlashgan "Jinoyat to'g'risida xabar" yagona raqamli axborot tizimini yaratishni taqozo etadi. Bu kelgusida barcha jinoyatlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlarning o'z vaqtida ro'yxatga olinishiga va har qanday qoida buzarlilarning oldi olinishiga xizmat qiladi. Yagona raqamli axborot tizimi jinoyat to'g'risida murojaatlarni har bir davlat idorasida alohida emas, butun respublikada yagona ro'yxatga olish va statistikasini yuritish qulayliklariga ega bo'lib, u ro'yxatga olingan jinoyat to'g'risidagi xabarlarini avtomatik tarzda raqamli tekshiruvga qaratilishini va qo'zg'atilgan jinoyat ishini «Elektron surishtiruv va dastlabki tergov» yagona axborot tizimiga avtomatik tarzda yuklashni ta'minlaydi.